

SHAYBONIY HUKMDORLARNING MADANIY HAYOTDAGI ROLINI O'RGANISHGA OID MANBALAR VA TADQIQOTLARNING TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Kimsanova Ruxshona

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix

(mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 3-kurs talabasi

RushanaXayrullayevna@gmail.com

Tel :998 93 855 10 05

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishi XVI asrda Movarounnahrda hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi vakillarining ilm-fan, madaniyat va maorif rivojiga qo'shgan hissasi hamda ularning shaxsiy ilmiy-adabiy salohiyatini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II kabi hukmdorlarning yoshlik yillarida olgan ta'lim tizimi, diniy va dunyoviy bilimlarni egallash darajasi hamda ularning davlat mafkurasi bilan bog'liqligi o'rganiladi. Saroy manbalarining o'ziga xos xususiyatlari tanqidiy yondashuv asosida ko'rib chiqilib, sulolaviy an'analarning mintaqa ma'naviy hayotidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, madaniy hayot, sulolaviy an'ana, "Bahr ul-hudo", "Kitob-i mehmonnomayi buxoro", chig'atoy-turkiy she'riyati, Movarounnahr.

Abstract: This research paper is dedicated to the historiographical analysis of the contributions made by the representatives of the Shaybanid dynasty, who ruled Transoxiana in the 16th century, to the development of science, culture, and education, as well as their personal scholarly and literary potential. The article examines the educational background of rulers such as Muhammad Shaybanikhon, Ubaydullakhon, and Abdullakhon II during their youth, their acquisition of religious and secular knowledge, and its integration into state ideology. By applying a critical approach to the specific nature of court-sponsored primary sources, the study highlights the role of dynastic traditions in the spiritual and intellectual life of the region.

Keywords: Shaybanids, Muhammad Shaybanikhon, Ubaydullakhon, Abdullakhon II, cultural life, dynastic tradition, "Bahr al-Huda", "Kitob-i mehmonnomayi buxoro", Chagatai-Turkic poetry, Transoxiana.

Аннотация: Данное исследование посвящено историографическому анализу вклада представителей династии Шейбанидов, правивших в Мавераннахре в XVI веке, в развитие науки, культуры и просвещения, а также изучению их личного научного и литературного потенциала. В статье рассматриваются система образования правителей, таких как Мухаммад Шейбани-хан, Убайдулла-хан и Абдулла-хан II, в годы их юности, уровень усвоения ими религиозных и светских знаний, а также взаимосвязь этого процесса с государственной идеологией. На основе критического подхода к специфике придворных источников освещается роль династических традиций в духовной жизни региона.

Ключевые слова: Шейбаниды, Мухаммад Шейбани-хан, Убайдулла-хан, Абдулла-хан II, культурная жизнь, династическая традиция, «Бахр ул-худо», «Китаб-и мехмоннамайи Бухоро», чагатайско-тюркская поэзия, Мавераннахр.

KIRISH

Shayboniylar sulolasining tarixiy ahamiyatini to'liq anglash uchun ushbu sulola hukmronlik qilgan XVI asrning o'ziga xos tarixiy-madaniy kontekstini chuqur tushunish zarur. Bu asr Movarounnahr uchun bir vaqtning o'zida ham katta sinovlar, ham yangi imkoniyatlar davri bo'ldi. Temuriylar sulolasining inqirozga yuz tutishi va Shayboniylarning hokimiyatga kelishi ko'plab tarixchilar tomonidan madaniy tanazzul sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, haqiqat bundan ancha murakkab va ko'p qirrali. Aslida Shayboniylar davri o'zining ichki dinamikasi, davlat boshqaruviga bo'lgan yondashuvi va ilm-fan hamda me'morchilikka ko'rsatgan homiylik an'analari jihatidan o'zbek tarixining eng boy va samarali davrlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy tarixshunoslik bu masalaga yangicha nazar tashlash zarurligini tobora ko'proq e'tirof etmoqda, chunki mafkuraviy yondashuvlarga asoslangan

an'anaviy baholar ko'pincha manbalar taqdim etayotgan haqiqiy tarixiy manzaraga mos kelmaydi. Xususan, sovet davri tarixshunosligi Shayboniylarni asosan feodal zulm va istilo timsolida ko'rsatib, ularning ijobiy tarixiy rolini ataylab kamaytirib tahlil qilgan. Bugungi mustaqil O'zbekiston tarixshunosligi esa bu masalaga yanada xolisona va ilmiy jihatdan asoslangan munosabatni shakllantirish yo'lida sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik tanqidi va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Fazlulloh ibn Ruzbexon yoki Hofiz Tanish Buxoriy kabi saroy tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar o'zlari xizmat qilgan hukmdorni ulug'lash tendensiyasiga ega bo'lgani bois, ularning ma'lumotlari boshqa, xususan xorijiy va mustaqil mualliflar – Mirzo Haydar Ko'ragon, Zahiriddin Muhammad Bobur yoki Iskandarbek Munshiy kabi shaxslar tomonidan yozilgan manbalar bilan qiyosiy o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALR

Shayboniylar sulolasi va davlati tarixini yoritishda tarixiy yozma manbalar katta ahamiyatga ega. Ulardan samarali foydalanish ushbu davr tarixini chuqur o'rganish, madaniy hayotga oid voqealarning to'la tasvirini qayta tiklashga yordam beradi. XVI asrda Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Qoshg'ar va Eron hududlarida bo'lib o'tgan voqealarga doir boy manba bazasi mavjud. Shayboniylar davri tarixiga oid eng muhim birlamchi manbalardan biri muallifi noma'lum hisoblangan "Tavorix-i guzida nusratnoma" asaridir (1502-1505-yillar oralig'ida yozilgan). A.A. Semenov, R.G. Mukminova va V.P. Yudin kabi olimlarning ta'kidlashicha, ushbu asar bevosita Muhammad Shayboniyxon ishtirokida va rahbarligida yozilgan [10;52,53]. Olima A.M. Akromova esa asar muallifi Muhammad Solih ekanligini ilgari suradi [3;45]. Manba ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi O'g'izxon, qadimgi turklar va Chingizxon avlodlari tarixiga, ikkinchi qismi esa Shayboniyxonning tavalludidan to 1505-yilga qadar olib borgan ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy faoliyatiga bag'ishlangan. Asarda Shayboniyxonning siyosiy

yurishlari bilan bir qatorda, uning yuksak ilmiy salohiyati va madaniy hayotga munosabati ham bayon etilgan.

Ali ibn Muhammad Kamoliddin Binoiy al-Xaraviy (1453-1512) tomonidan yozilgan “Shayboniynoma” asari ham sulola hukmronligining oʻrnatilishi va davr madaniy muhitini oʻrganishda tengsiz manba hisoblanadi. Muallif 1501-1512-yillarda Shayboniyxon huzurida saroy shoiri va tarixchisi boʻlib xizmat qilgan [2;114]. Asarda Muhammad Shayboniyxonning ilmga boʻlgan qiziqishi, olimlar bilan oʻtkazgan suhbatlari va ilmiy majlislari batafsil tasvirlangan. Yana bir yirik epik asar Muhammad Solih (1455-1535) qalamiga mansub sheʼriy “Shayboniynoma” dostonidir. Muhammad Solih mashhur temuriy hukmdor Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan, Alisher Navoiy tahsiniga sazovor boʻlgan isteʼdodli ijodkordir. Keyinchalik u Shayboniyxon xizmatiga oʻtib, xon tomonidan “Amir-ul-umaro” va “Malik-ush-shuaro” unvonlari bilan taqdirlangan [8;12,14]. 1499-1506-yillardagi voqealarni oʻz ichiga olgan ushbu jangnoma-dostonda davrning madaniy hayoti, adabiy muhiti va Shayboniyxonning sheʼriy mahorati, ichki kechinmalari sheʼriy satrlarda mahorat bilan ifodalangan.

Fazlulloh ibn Ruzbexon al-Isfaxoniy (1457-1521) tomonidan yozilgan “Mehmonnomayi Buxoro” (1509-yil) asari Shayboniy sultonlarning ilmiy faoliyatini yoritishda alohida oʻrin tutadi. Eronni tark etib, Samarqand va Buxoroga kelgan Ruzbexon Shayboniyxonning yaqin maslahatchisi va muarrixsi sifatida faoliyat yuritgan [12;88]. U oʻz asarida Muhammad Shayboniyxonni faqat harbiy yoki siyosiy arbob sifatida emas, balki Qurʼon tafsiri, fikh va islom huquqi boʻyicha ulamolar bilan bahslashga oladigan yetuk olim va adabiyot homiysi sifatida tasvirlaydi.

XVI asrning birinchi choragidagi voqealarni Gʻiyosiddin Xondamir (1473-1534) oʻzining mashhur “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” asarida aks ettirgan. Asarning uchinchi bob toʻrtinchi qismida Shayboniylar haqida maʼlumotlar berilgan boʻlib, unda xonning ilmiy majlislari va madaniy muloqotlari oʻz ifodasini topgan[15].

Mintaqaning XVI asr ikkinchi yarmi tarixini yoritishda Hofiz Tanish Buxoriy (1549-1635) tomonidan saj uslubida bitilgan “Sharafnomai shohiy” (“Abdullanoma”)

asari markaziy o'rinni egallaydi. Muarrix ushbu asarida Shayboniy sultonlardan Abdullaxon II ning yoshlik yillari, uning ta'lim olish jarayoni, fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqi va ustozlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi [13;74]. Shuningdek, Muhammadyor ibn Arab Qatag'anning "Musaxxir al-bilod" asari ham sulola shajarasini izchillik bilan bayon qilib, har bir hukmdorning o'ziga xos ilmiy salohiyati va madaniy faoliyatiga ta'rif berib o'tadi[9].

Temuriylar va Shayboniylar o'rtasidagi kurashlarni xolis va haqqoniy baholashda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" memuari va Mirzo Muhammad Haydar Ko'ragonning "Tarixi Rashidiy" asarlari o'ziga xos ahamiyatga ega. "Boburnoma"da faqat harbiy to'qnashuvlar emas, balki davrning ilm-ma'rifat kishilari, shoir va san'atkorlari (Jomiy, Navoiy, Binoiy, Muhammad Solih va b.) haqida maroqli va realistik xarakteristikalar berilgan.

Mazkur davr manbashunosligi o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Birlamchi manbalarining aksariyati forsiy tilda bo'lsa-da, turkiy tilda bitilgan asarlarning ko'payishi o'zbek adabiy tilining mavqei yuksalib borayotganini ko'rsatadi. Forsiy manbalar ko'proq xalqaro miqyosga, turkiy asarlar esa keng xalq ommasiga mo'ljallangan edi.

XVI asr Shayboniylar davri madaniy hayotini o'rganish tarixini bir necha bosqichga bo'lish mumkin. Ilk tizimli izlanishlar XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. V.V. Bartold, A.A. Semenov, G.A. Pugachenkova va L.I. Rempel kabi olimlarning asarlarida Buxoro xonligining iqtisodiy, siyosiy, shuningdek, madaniy-bunyodkorlik hayoti ma'lum ma'noda o'z aksini topgan. Xususan, G.A. Pugachenkovaning O'rta Osiyo me'morchiligi va san'ati tarixiga oid tadqiqotlari davr obidalarini o'rganishda poydevor vazifasini o'tadi. Biroq sovet davri tarixshunosligida hukmdorlarning shaxsiy roli va madaniy faoliyati ko'pincha sinfiy va mafkuraviy qoliplarga solinib, salbiy bo'yoqlarda ko'rsatildi. Bu davr tarixini chuqur tadqiq etgan yirik sharqshunos olim Bo'riboy Axmedov sovet tarixshunosligidagi biryoqlamalikka barham berishga intilib, ko'plab yozma manbalarni (jumladan, "Musaxxir al-bilod" va "Abdullanoma"ni) ilmiy muomalaga kiritdi va tizimli tahlil qildi. Shuningdek, R.G.

Mukminova yozma va arxiv hujjatlari asosida xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini, hunarmandchilik tarixini yoritdi. O.D. Chexovich va M.A. Abduraimovlarning ilmiy ishlarida ham xonlikning ma'naviy va xo'jalik hayotiga oid ko'plab vaqf hujjatlari tahlil qilingan. Mustaqillik yillariga kelib, Shayboniylar sulolasining o'zbek davlatchiligi va madaniyati tarixidagi o'rniga xolisona baho berish imkoniyati tug'ildi. Akademik Azamat Ziyoning **“O'zbek davlatchiligi tarixi”** asarida Shayboniylar sulolasining o'ni yuqori baholandi. Muallif Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II larning mamlakatni yagona markaz atrofiga birlashtirish yo'lidagi harakatlarini, ayniqsa Abdullaxon II ning Amir Temurdan so'ng yirik hududlarni yagona Buxoro hokimiyati ostida jamlay olgan so'nggi buyuk davlat arbobi bo'lganini e'tirof etadi [1;172,173]. Tarixchi olim Zafarjon Muqimov o'z tadqiqotlarida Shayboniylar davlati va huquqi tarixini o'rganar ekan, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II kabi hukmdorlarni ilm-fan va adolat tarafdorlari bo'lganini alohida ta'kidlaydi. Ular davrida qurilgan muhtasham me'moriy obidalar, madrasalar va madaniy yuksalish xalqimizning faxri ekanligini asoslab beradi [6;56].

XVI asr Movarounnahrida ilmiy hayotning tashkiliy asosini madrasa tizimi tashkil etgan. Shayboniylar davrida davlat hokimiyati va ulamolar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik modeli shakllandi. Ulamolar hukmdorlarning islomiy qonuniyligini (legitimligini) ta'minlasa, hukmdorlar vaqf mulklari tizimi orqali ilm ahlining moddiy ta'minotini kafolatladi. Ulamolar nafaqat madrasalarda dars berishgan, balki davlat boshqaruvida maslahatchi, elchi (masalan, Fazlulloh ibn Ruzbexon saroy muarrix, Mir Arab esa ma'naviy rahbar hamda yirik irrigatsiya va bunyodkorlik loyihalari boshqaruvchisi bo'lgan) sifatida ham faoliyat yuritishgan. Bundan tashqari, ko'plab manbalarda Shayboniy hukmdorlarning tasavvuf dunyosi, xususan Naqshbandiya tariqati bilan chuqur aloqada bo'lgani ta'kidlanadi. Naqshbandiyaning “xilvat dar anjuman” (eldan ajralmagan holda Xudo bilan bo'lish) tamoyili sultonlarning ham siyosiy-harbiy, ham ma'naviy-ilmiy faoliyatni parallel ravishda muvaffaqiyatli olib borishlariga mafkuraviy zamin yaratgan.

XULOSA

Tarixiy manbalar va tarixshunoslik asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Shayboniy sultonlarning XVI asr Movarounnahr madaniy-ma'naviy hayotidagi roli nihoyatda salmoqli bo'lgan. "Tavorix-i guzida nusratnoma", Binoiy va Muhammad Solihning "Shayboniynoma"lari, Ruzbexonning "Mehmonnomayi Buxoro"si va Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma"si kabi birlamchi manbalar voqealar ishtirokchilari tomonidan yozilgani bois yuksak ilmiy qiymatga ega. Ular Shayboniy hukmdorlarning nafaqat jangovar yurishlarini, balki yuksak intellektual salohiyatini, madrasalar tizimini rivojlantirganini va ulamolarga homiylik qilganini yaqqol isbotlaydi.

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan, sovet davridagi sinfiy va biryoqlama qarashlar mustaqillik yillarida o'z o'rnini xolis va obyektiv tadqiqotlarga bo'shatib berdi. Azamat Ziyo, Bo'riboy Axmedov, Zafarjon Muqimov kabi olimlarning izlanishlari Shayboniylarni o'zbek milliy davlatchiligi va madaniyati tarixining ajralmas, taraqqiyparvar qismi sifatida baholashga imkon yaratdi. Shunday bo'lsa-da, sultonlarning shaxsiy ilmiy merosi, ularning bolalik va yoshlik yillarida olgan ta'lim tizimi hamda bu omillarning keyingi davlat boshqaruvi madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri muammosi hamon maxsus va tizimli tahlillarni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 368 б.
2. Али ибн Муҳаммад Камолиддин Биноий. Шайбонийнома / ЎЗР ФА ШИ фонди, қўлёзма, инв. № 114.
3. Акрамова. М.А Таворих-и гулида. Нусрат-наме / Исследование, критический текст, аннотированный перевод А.М. Акрамова. – Тошкент: Фан, 1967. – 128 б
4. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 288 б.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.
6. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Самарқанд: СДУ нашри, 2004. – 156 б.
7. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. – Ташкент: Фан, 1976. – 234 с.
8. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома / Нашрга тайёрловчи Э. Шодиев. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 344 б.
9. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари И. Бекжонов, Д. Сангирова. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 428 б.
10. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана (с древнейших времен до середины девятнадцатого века). – Москва: Искусство, 1965. – 688 с.
11. Семёнов А.А. Культурный уровень первых Шейбанидов // Советское востоковедение. – 1956. – № 3. – С. 51–59.
12. Фазлаллах ибн Рузбихан Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод, предисловие и указатели Р.П. Джалиловой. – Москва: Наука, 1976. – 336 с.
13. Ҳофиз Таниш Бухорий. Шарафномаи шоҳий (Абдуллонома). 1-китоб / Нашрга тайёрловчи Б. Аҳмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 256 б.
14. Чехович О.Д. Бухарские документы четырнадцатого века. – Ташкент: Наука, 1965. – 320 с.
15. Гиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийяр фи ахбори афроди башар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 560 б.